

# O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 2 / ISS: 1 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE




TOSHKENT DAVLAT  
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	YASHIL SUG'URTA ORQALI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA EKOLOGIYANI ASRASH <i>Yuldashev Akromjon Qurbanazarovich, To'rayev Sherxon Mo'min o'g'li</i>	3
2.	IQLIM O'ZGARISHI TA'SIRIDAGI MOLIYAVIY YO'QOTISHLARDAN HIMOYALASHDA INDEKS SUG'URTALASHNI JORIY ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Yadgarov Akram Akbarovich</i>	6
3.	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH JARAYONLARI TAHLLILI <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	9
4.	СУФУРТА БОЗОРИ ВА МОЛИЯВИЙ КОНВЕРГЕНЦИЯ ЖАРАЁНИДА УНИНГ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ <i>Халиков Умид Рахматуллаевич</i>	13
5.	СУФУРТА КОМПАНИЯЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИНИ ЖОЙЛАШТИРИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ <i>Maerulova Nilufar Abduxalilova</i>	18
6.	REGULATORY AND FINANCIAL BARRIERS TO SME DEVELOPMENT IN EMERGING MARKETS (IN CASE OF UZBEKISTAN) <i>Tojiyev Abror Rakhmonalievich, Rakhmonaliev Abbos Abror ugli</i>	21
7.	TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK MAHSULOTLARINI SOTISH AMALIYOTINING RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI <i>Yunusova Shaxlo Raximjanovna</i>	24
8.	USING MARKETING STRATEGIES TO ENHANCE THE COMPETITIVENESS OF THE NATIONAL ECONOMY <i>Bobomurodov Kayimjon Homidovich</i>	29
9.	НЕЙРОМАРКЕТИНГ И ПОВЕДЕНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ: ГЛУБОКОЕ ПОНИМАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ВЫБОРА <i>Юлдашев Жамишд Абрарович</i>	32
10.	ЎЗБЕКИСТОН АХОЛИСИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИДАГИ ТАФОВУТЛАРНИНИНГ ИҚТИСОДИЙ- СТАТИСТИК ТАХЛИЛИ <i>Илёсова Дилбар Исмоил қизи</i>	35
11.	KORPORATIV TUZILMALarda AKSIYALAR BOZORIDAN MOLIYAVIY RESURSLAR JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xasanov Xayrullo Nasrullahovich</i>	38
12.	ISHSIZLIKNI KAMAYTIRISH UCHUN KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISH <i>Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi, Tohirjonov Rahmatillo Farhodjon o'g'li, Hayitaliyev Jahongir Komiljon o'g'li</i>	41
13.	SOLIQ BAZASINI ANIQLASH METODOLOGIYASIGA OID UMUMIY NAZARIYA VA YONDASHUVLAR <i>Xalikchayeva Sadokat Ilhomjonovna</i>	43



## KORPORATIV TUZILMALarda AKSIYALAR BOZORIDAN MOLIYAVIY RESURSLAR JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Xasanov Xayrullo Nasrullayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsentsi

email: [khayrullo.khasanov@bk.ru](mailto:khayrullo.khasanov@bk.ru)

### ARTICLE INFORMATION

Volume: 2

Issue: 1

DOI: [https://doi.org/10.55439/INS/vol2\\_iss1/252](https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss1/252)

### ABSTRACT

Mazkur maqolada korporativ tuzilmalarning aksiyalar bozoridagi ishtirokining nazariy va ilmiy asoslarini bayon etilgan. Mamlakatimiz qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyadorlik jamiyatlarning ishtiroki, hususan aksiyalar savdo hajmi, amalga oshirilgan bitimlar bo'yicha amaldagi holati tahlil qilingan. O'zbekistonda aksiyalar bozorini yanada rivojlanishiga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

### KEYWORDS

aksiyalar bozori, fond bozori, aksiyadorlik jamiyat, moliyaviy resurslar, moliya strategiyasi, aksiya, fond bozori, moliyaviy ta'minot, strategiya, investitsiyalar.

### Kirish (Введение /Introduction)

Milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jaib qilish mamlakatimiz istiqbolli strategiyalarining ustuvor vazifalaridan bo'lib, korporativ tuzilmalar tomonidan ichki va tashqi moliyaviy resurslardan foydalananishni talab qiladi. Juhon iqtisodiyotining globallashuvi va O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamjamiyatiga integratsiyalashuvi investorlar uchun har tomonlama qulay, o'zaro manfaatli sharoitlar va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun sharoitlar yaratishni talab qiladi. Albatta, buning muhim shartlaridan biri barqaror iqtisodiy rivojlanishdir, bunday maqsadga esa investitsiya faolligini oshirmsandan turib erishish murakkab hisoblanadi. Investitsion jarayonlarni jadallashtirish va yirik xorijiy investitsiyalarni jaib qilish muammosi mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilashni taqozo etadi. Bu masalani hal etishning optimal yo'nalishlaridan biri moliyaviy resurslarini iqtisodiyot tarmoqlariga qayta taqsimlashning eng samarali mexanizmi sifatida ichki fond bozorini rivojlanishiga hisoblanadi.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida kapital bozorini yanada rivojlanishiga orqali fond bozorida korporativ tuzilmalar ishtirokinin takomillashtirishning iqtisodiy-huquqiy asoslarini rivojlantrib kelinmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 2 sentyabrdagi "Kapital bozorini rivojlanishining qo'shimcha choratdirlari to'g'risida"gi PQ-291-soni qarori [1] qabul qilinishi kapital bozorini yanada rivojlanish, uning infratuzilmasini takomillashtirish, investorlarni kapital bozoriga jaib etishni rag'batlantirish, chet el investorlari uchun mahalliy fond bozorida qatnashish tartibini soddalashtirish va investorlarning huquqlarini himoya qilish singari ustuvor masalalarni o'z ichiga olgan.

Ta'kidlash kerakki, arzon tashqi moliyalashtirish manbalariga kirishdagi qiyinchiliklar, kapital bozorini rivojlanishdagi muammo va kamchiliklar, korporativ tuzilmalar tomonidan aksiyalar bozoridagi ishtirokining pastligi milliy fond bozorining zaif rivojlanishi hamda uning salohiyatidan to'liq foydalanimaslik iqtisodiyot raqobatbardoshligini pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun investitsiya jozibadorligini oshirish yo'llarini o'rGANISH va korporativ tuzilmalarning investitsiya ehtiyojlarni moliyalashtirish uchun fond bozorini jaib qilish dolzarb tadbiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

### Адабиётлар тахлили. (Обзор литературы / Literature review).

Korporativ tuzilmalar tomonidan moliyaviy resurslar jaib qilish orqali kapital bozorini rivojlanishiga masalalari mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan qator tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda.

Jahon molija bozorini rivojlanishining joriy tendensiyalarini tahlil qiladigan bo'lsak, bugungi kunda fond bozorlarini rivojlanishining asosiy yo'nalishlari sifatida moliyaviy texnologiyalarni shiddat bilan kirib kelayotganligi hamda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalananishni rivojlanib borayotganligini alohida qayd etish kerak. Shu bilan birga aksariyat qarz yoki mulkiy instrumentlarni "yashil"lik statusiga ustuvorlik berilmoqda. Bu esa kelgusida fond bozorlari orqali yashil iqtisodiyotni barpo qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligini o'zida namoyon etadi [2].

Fond bozori moliyaviy bozorning bir qismi bo'lib, unda "uzoq muddatli pul" deb ataladigan ya'ni bir yildan ortiq muddatga ega bo'lgan mablag'lar realizatsiya qilinadi. Kapital bozorida erkin kapital va investitsiyalar turli foydalni moliyaviy aktivlarga qayta taqsimlanadi [3]. Kapital bozori - o'rta va uzoq muddatli moliyaviy vositalar bozori bo'lib, ya'ni investitsiyalarning daromadlik davri nuqtai nazaridan bir yildan kam bo'limgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu xususiyat mazkur bozorda yirik kapitalni jaib qilish uchun qulay bo'lishi nuqtai nazaridan ifodalabinib, iqtisodiyotda sodir bo'layotgan jarayonlarga real ta'sir ko'rsatadi [4]. Jahon molija bozori, mustahkam ishonch asosida qurilishi kerak. Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan geosiyosi va iqtisodiy muammolar xalqaro fond bozori arxitekturasini o'zgarishiga salbiy ta'sir qilayabdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki ayrim davlatlar iqtisodiyotiga kiritilayotgan turli darajadagi sanksiyalar bilvosita qimmati qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarga va daromadlarga ham ta'sir ko'rsatib jahon kapital bozorida investorlar o'tasidagi ishonchni yo'qolishiga olib kelmoqda. Shuning bugungi kunda mustahkam ishonch va daromadlari kafolatlangan jahon kapital bozorini fundamental asoslarini rivojlanishiga doir tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb hisoblanadi [5].

Investitsiyalar nazariyasida kapital bozori, investitsiya kiritish orqali daromadga ega bo'lish, shu jumladan kafolatlangan daromadni ta'minlash, erkin shaklda yoki olingan qarz manbalarini qaytarishni hisobga olgan holda tashqi moliyalashtirish imkoniyatini beruvchi bozor sifatida tasniflanadi. Kapital bozori faoliyatining asosiy maqsadi kreditorlarning mavjud mablag'larini, o'z biznesini moliyalashtirish

uchun foydalanadigan qarz oluvchilar o'rtasida eng foydali tarzda taqsimlashdir [6].

Ta'kidlash kerakki, keyingi yillarda mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham milliy qimmatli qog'ozlar bozorini takomillshitirishga doir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Fond bozori-qimmatli qog'ozlar emissiyasi va ularning oldi-sotdisi bilan shug'ullanadigan sohasi va qimmatli qog'ozlar muomalasi bo'yicha moliyaviy munosabatlari majmui bo'lib, uning asosiy vazifasi «jamg'arma-investitsiya» mexanizmini ishga tushirish, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga va texnika taraqqiyotiga zarur bo'lgan moliyaviy mablag'larni to'plash va taqsimlash, yuridik va jismoniy shaxslarning sarmoyalalarini jalb qilish, uni yanada ko'paytirish va iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltirish orqali iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvini ta'minlash kabilardan iborat [7]. Mamlakat moliya tizimining tarkibiy qismi sifatida fond bozori bir qator iqtisodchilarning ilmiy ishlarida bo'sh pul mablag'larning harakatini ta'minlovchi mexanizm sifatida qaraladi. U qarz oluvchiga kapital mablag'larni sotib olish uchun mablag'larni jalb qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuvlar bilan fond bozorining mohiyatiga oid ta'riflar chegaralanmaydi. Bozorning ushbu turi bozor iqtisodiyotining muayyan rivojlanish davrida pul muomalasining yangi shakliga bo'lgan talabning yuzaga kelishi bilan paydo bo'ldi [8].

Qimmatli qog'ozlar bozori tushunchasining mohiyatini aniqlashtirishning murakkabligi shunda ko'rindiki, uning infrafuzilmasi moliyaviy bozorning qismi hisoblangan pul bozori bilan chambarchas bog'liq va moliyaviy instrumentlar kapital bozori va pul bozori uchun bir xildir. [9]

#### Тадқикот усуслари (Методология/Methodology).

Maqolada korporativ tuzilmalarda aksiyalar bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda aksiyalar bozorining o'mni va ahamiyati, ilmiy asoslarini yoritishiga qaratilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlanmalari tadqiq etilgan. Shuningdek tadqiqotda matematik-statistik modellashtirish, qiyosiy tahlil, korrelyatsiya va regressiya, mantiqiy fikrlash kabi usullardan foydalilanigan.

#### Тахлил ва натижалар (Анализ и результаты. Analysis and results).

Yangi O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanib bormoqda. Bu sohada qabul qilinayotgan qarorlar natijasida aksiyalar bozorida institutsional investorlarning faoliygini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ularning ayrimlari hususida fikrlerimizni davom ettiramiz. Kapital bozorini rivojlantirish borasida belgilab berilgan quyidagi ustuvor vazifalar aksiyalar bozorida ijobjiy tendensiyalarni kuzatish imkonini beradi, deb o'yaymiz:

- 2028 yil 31 dekabrga qadar «Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitarisi» AJ, «O'zbekiston respublika valyuta birjası» AJ va «Toshkent» respublika fond birjası» AJ mablag'larni maqsadli ravishda ularni rivojlantirishga yo'naltirigan holda dividendlarni hisoblash va to'lashdan ozod qilinishi;

- kapital bozori sohasida «Tartibga solish qumdoni» maxsus huquqiy rejimi joriy qilinishi;

- aksiyalar ommaviy joylashtirilganda korxonalar xodimlari korxona tomonidan joriy qilingan o'z xodimlarining aksiyalarga egalik qilish rejsi (ESOP) doirasida ularga ushbu aksiyalarni sotib olish bo'yicha imtiyozli huquqni taqdim etish. Bunda, ularning aksiyalarni sotib olishga yo'naltiradigan oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlardan oshmaydigan mablag'lari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod qilinishi;


- soliq to'lovchining soliq davri davomida jami mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining yuz baravarigacha bo'lgan miqdordagi ish haqi va boshqa daromadlaridan mahalliy fond bozorida emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun shaxsiy investitsiya hisobvarag'iga yo'naltiriladigan daromadlarini ularni o'n ikki oy ichida qaytarib olmaslik sharti bilan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod qilinishi;

- davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan korxonalarining aksiyalari fond bozorida ommaviy taklif qilish orqali joylashtirilgandan so'ng kamida yetti yil davomida mazkur korxonalar sof foydasining kamida 30 foizi dividend to'lashga yo'naltirilishi. [10]

Qimmatli qog'ozlar bozorida amalga oshirilgan bu kabi islohotlar to'mma'noda bozorning tarihiy o'zgarishi sifatida qabul qilinishi bilan bir

qatorda, qimmtali qog'ozlar bozorida investorlar uchun har tomonlama manfaatli loyihalarda ishtiroy etish imkonini beradi.


2024-yilning 9 oyi davomida "Toshkent" RFB birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan umumiy qiymati 2,44 trln. so'mlik 358 510 ta bitim tuzildi. Bitimlar obyektlari 99 ta emitentning 15,66 mlrd dona qimmatli qog'ozlari bo'ldi. Bitimlar hajmining eng yuqori ko'rsatkichi 16-sentabrda amalga oshirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich bir savdo kunida 1,89 trln. so'mdan oshildi; minimal ko'rsatkich esa 8-avgustda qayd etilib, bitimlar hajmi 45,66 mln. so'mni tashkil etdi. Bitimlar soni bo'yicha eng ko'p bitimlar 19-iyulga to'g'ri kelib, o'shanda bir savdo kunida 3 894 ta bitim qayd etildi. Barcha platformalarda tuzilgan o'rtacha kunlik bitimlar soni 1 938 taga, o'rtacha kunlik bitimlar hajmi esa 13,18 mlrd. so'mga teng bo'ldi (1-rasm).



1-rasm. 2024 yilning 9 oyi bo'yicha savdolar hajmi va bitimlar soni [11]

2024-yilning 9 oyi davomida amalga oshirilgan bitimlar hajmi va sonini 2020-2023 yillarning shu davrlari bilan solishtirganda, bitimlar hajmi va sonining sezilarli darajada oshganini qayd etish joiz. 2024-yilda ko'rib chiqilayotgan davrdagi bitimlar soni 2023-yilning 9 oyiga nisbatan 44,01 foizga va bitimlar hajmi 3,52 foizga oshgan. Shuni ta'kidlash kerakki, o'tgan besh yil davomida bitimlar soni o'sishida ijobji dinamika kuzatilmoqda. Qimmatli qog'ozlar bozorida asosiy savdo maydoni bo'lgan G1—"Main Board" savdo platformasida 88 ta emitentning aksiyalari bilan umumiy qiymati 102,00 mlrd. so'mlik 355 922 ta bitim tuzildi (2-rasm).

Bitimlarning eng katta hajmi "UzAuto Motors" AJning /UZMFT/ oddiy aksiyalari bilan tuzilgan 22,79 mlrd. so'mlik bitimga to'g'ri keldi. T1- «Nego Board» savdo maydonida, ya'ni, muzokaralar auksiyon rejimida, hajmi chiqarilgan qimmatli qog'ozlar umumiy sonining kamida 1% ni tashkil etadigan qimmatli qog'ozlar paketlari bilan bitimlar tuziladigan bo'limda, ko'rib chiqilayotgan davrda 21 ta emitentning qimmatli qog'ozlari bilan umumiy qiymati 135,13 mlrd. so'mlik 97 ta bitim qayd etildi. Bitimlarning eng katta hajmi "Xalq Banki" ATBning /XKBK/ oddiy aksiyalari bilan tuzilgan bo'lib 1,84 trln. so'mni tashkil etdi. «O'zelektroterm» AJning /UZETP/ imtiyozli aksiyalari bilan tuzilgan 3 071 so'mlik savdo eng kichik hajmdagi bitim bo'ldi.



2-rasm. Aksiyalar bozorining Main Board savdo maydonidagi bitimlar soni dinamikasi (mlrd. so'm) [12].

«Stock Market» aksiyalar bozorining «Main Board» savdo maydonida yirik bitimlar hajmi iyun oyiga to'g'ri kelib, 27,11 mlrd. so'mni tashkil etgan. Ushbu ko'ratkichni 2023-yilning xuddi shu davri bilan solishtirganda, 6,50% ga kamayganini ta'kidlab o'tish mumkin.

«Main Board» savdo maydonidagi eng kam bitimlar hajmi - 5,79 mlrd. so'm, may oyiga tog'ri keldi. [13]

2024 yilning 9 oyi davomida iqtisodiyotning 10 ta tarmog'idagi AJ va MChJ qimmatli qog'ozlari oldi-sotdisi amalga oshirildi, ulardan banklar sohasiga tegishli bo'lgan qimmatli qog'ozlari eng ko'p sotilgan va ular bilan 234 237 ta bitim tuzilgan. Undan keyingi o'rinni boshqa tarmoqlar emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan - 27 338 dona bitimlar egalladi. Eng kam bitimlar soni "Lizing" tarmog'ida - 635 donaga teng bo'lgan emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlarga to'g'ri keldi. Hisobot davridagi birjaviy bitimlarning eng katta hajmi bank sohasiga oid kompaniyalarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar hisobiga to'g'ri kelib (2,16 trln. so'm), bu bitimlarning umumiyligi hajmining 88,80 foizini tashkil etgan. Boshqa iqtisodiy sohaga taaluqli kompaniyalar qimmatli qog'ozlari bilan - 153,62 mlrd. so'm hamda sanoat tarmog'iga kiruvchi tashkilotlarning qimmatli qog'ozlari bilan - 38,74 mlrd. so'mlik bitimlar qayd etildi. Eng kam hajmdagi bitimlar esa "Lizing" sektoriga tegishli emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshirilgan bo'lib, 16,72 ming. so'mni yoki umumiyligi birja aylanmasining 0,0007% ni tashkil etdi. [14]

Fikrimizcha, mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirishning maqsadi barcha toifadagi investorlar uchun resurslarni yo'naltirish va kapital jamlash uchun samarali bozorni yaratish orqali uni iqtisodiyotning asosiy moliya bozorlaridan biriga aylantirishni nazarda tutadi. Bozorni rivojlantirish yo'nalishlari sifatida esa, qimmatli qog'ozlarning zamonaviy turlarini joriy etish orqali investorlarga turli tanlovlari taqdirm etish shuningdek xalqaro kapital bozoriga "chiqish"da moliyaviy savodxonlikni oshirishga doir elektron platformalarni rivojlantirish kerak. Aytishimiz mumkinki, joriy davrda O'zbekiston fond bozori rivojlanishning zamonaviy bosqichida bo'lib sekin-asta o'sishda davom etmoqda. Bugungi kunda qimmatli qog'ozlar bozorida sotiladigan ko'plab aktsiyalar va obligatsiyalar mayjud bo'lib, ularning umumiyligi soni 100 dan ortiq qimmatli qog'ozlarni tashkil etmoqda. Tadqiqotlar jarayonida aniqlandiki, bugungi kunda qimmatli qog'ozlar fond birjasini ko'proq IPO bo'lishidan manfaatdor bo'lib, shunda ko'proq kompaniyalar fond bozorida o'z aktsiyalari va obligatsiyalarini chiqaradi. Albatta mazkur jarayonda davlatning roli muhim hisoblanadi, davlat kompaniyalariga ta'sir ko'rsatish vositalariga ega va bu davlat kompaniyalarini o'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish uchun tayyorlash va IPOga olib chiqishda juda ijobjiyl rol o'yashni mumkin.

#### **Хуоса (Заключение/Conclusion).**

#### **References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 2 sentyabrdagi PQ-291-son "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. J. Yao and C. Yang, Financial technology and climate risks in the financial market, International Review of Financial Analysis (2024), <https://doi.org/10.1016/j.irfa.2025.103920>
3. Tatiana Didier, Ross Levine, Ruth Llovet Montanes, Sergio L. Schmukler Capital market financing and firm growth, Journal of International Money and Finance, Volume 118, 2021, 102459, ISSN 0261-5606, <https://doi.org/10.1016/j.jimonfin.2021.102459> (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0261560621001108>)
4. Rafał Czupryn, Łukasz Wójtowicz The Influence of the Capital Market on Economic Growth in the USA. Central european review of economics & finance vol. 35, No. 4(2021), pp. 5-14.
5. Saumitra Jha, Moses Shayo, Chagai M. Weiss, Financial market exposure increases generalized trust//Journal of Public Economics Volume 242, 2025, 105303, ISSN 0047-2727, <https://doi.org/10.1016/j.jpubeco.2025.105303>.
6. (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0047272725000015>)
7. Alden E., Strauss R. How America stacks up: Economic competitiveness and US policy. – Council on Foreign Relations Press, 2016.
8. Sultonov Sh.N. O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish yo'llari/Iqtisodiyot va ta'lim, 2022-yil 5-son.
9. Xoliqov U.R. Fond bozori: nazariya va talqin// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2016 yil.
10. Burkhanov A. U., Hamdamov O. N. Financial management. Textbook //T.:»Innovative development publishing house», -2020.
11. Tursunova N.R. Korporativ moliyani boshqarishda moliyaviy ta'minoti samarali tashkil etish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – TMI.: Toshkent – 2019, 21 b.
12. [www.napp.uz](http://www.napp.uz) - O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining rasmiy veb-sayti.
13. [www.uzce.uz](http://www.uzce.uz) – Toshkent RFBning rasmiy veb-sayti
14. Барагова Динора Алишеровна. (2024). СУГУРТА БОЗОРИ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА ИННОВАЦИЯЛАР. Страховой рынок Узбекистана, 1(12), 51–52. [https://doi.org/10.55439/INS/vol1\\_iss12/236](https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss12/236)
15. Maxmudov , S., & Jomurodov , H. (2024). MILLIY FOND BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO FOND BOZORLARIGA INTEGRATSIYA JARAYONI. Страховой рынок Узбекистана, 1(7), 84–87. [https://doi.org/10.55439/INS/vol1\\_iss7/132](https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss7/132)

Korporativ tuzilmalarning aksiyalar bozoridagi ishtirokini tadqiq qilish jarayonida sohani yanada rivojlantirishga doir quyidagi xulosalar shakllanirildi.

Milliy iqtisodiyotda uzoq muddatli moliyalashtirishni talab qiladigan loyihalar uchun kapital eng yaxshi moliyalashtirish usuli hisoblanadi. Agar milliy fond bozori yuqori tendensiylar bilan rivojlanadigan bo'lsa, mamlakat iqtisodiyoti moliyalashtirish bo'yicha ko'plab "yengillik" larga ega bo'ladi, chunki ko'plab kompaniyalar rivojlanishi uchun kapital jalb qilish, yangi ish o'rinnari yaratish, yangi loyihalarga sarmoya kiritish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladi. Qimmatli qog'ozlar bozori o'zining hususiyatidan kelib chiqqan holda, bo'sh turgan resurslarni "harakat"ga keltirib moliyaviy resurslarga ega bo'lgan kompaniyalar uchun ta'minot manbalarini topishga va undan samarali foydalanisha xizmat qiladi.

Qimmatli qog'ozlar bozoridagi asosiy muammolaridan biri, bu hali ham aktsiyalarning likvidligini etishmasligi, ya'ni fond birjasida savdolarda ishtirot etadigan faol investorlar (xaridorlar va sotuvchilar) va investitsion jozibador qimmatli qog'ozlar juda kam hisoblanadi. O'zbekistonda moliyaviy jihatdan barqaror kompaniyalar ko'p bo'lsada, afsuski, ular turli sabablarga ko'ra o'z aksiyalarini birjaga chiqarmaydilar. Bunday kompaniyalarga davlat kompaniyalari bilan birga hususiy kompaniyalarni ham misol qilib keltirish mumkin. Shuningdek, xalqaro amaliyotda bo'lgani singari pensiya jamg' armalari mahalliy institutsional investorlar ham mavjud emas. Sug'urta kompaniyalarining institutsional investor sifatidagi roli qimmatli qog'ozlar bozorida judayam past hisoblanadi.

Kapital bozorini rivojlantirishni rag'batlantirish uchun huquqiy-me'yoriy muhitni takomillashtirish, firibgarlikka qarshi choralarmi kuchaytirish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish, texnologik infratuzilmani rivojlantirish, axborotdan foydalanishni ta'minlash va investorlarning huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini yaratish zarur. Bozordagi bu vazifalar nafaqat tartibga soluvchi tashkilotlar balki kapital bozorini rivojlantirishga doir institutlar, bozor ishtirotchilari, nodavlat tashkilotlar hamda bozorlarda biznes amaliyotini yaratish va shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lgan alohida yirik institutsional investorlar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishdagi muhim omillardan biri bu bozorda portfel investitsiyalarni ko'paytirish hisoblanadi. Chunki xorijiy investorlarni qimmatli qog'ozlar bozoriga jalb qilishda yuqori samaradorlikka ega bo'lgan portfellar zarurdir.